

“Sho’rchidonmahsulotlari” Ajda urug’lik don tayyorlash jarayonlari bilan tanishildi



Viloyat hokimi Ulug’bek Qosimov Sho’rchi tumaniga tashrifining keyingi manzilida “Sho’rchidonmahsulotlari” Ajda bo’lib, korxona faoliyati, mahsulot ishlab chiqarish va urug’lik don tayyorlash jarayonlarini ko’zdan kechirdi.

Joriy yilda Turkiya texnologiyasi asosida qayta modernizatsiya qilingan korxonada kuniga 660 tonna bug’doy qayta ishlanadi, 120 tonna omuxta yem ishlab chiqariladi. Mavjud 4 ta urug’lik sexida jami 9 560 tonna don saralanadi va dorilanib, ekishga tayyorlanadi. Hozirda korxonada 600 nafar ishchi-xodimlar mehnat qilib kelmoqda.

Shu yerning o’zida 2024 yil hosili uchun urug’lik donni tayyorlash, saqlash va belgilangan muddatlarda ekish ishlariiga tayyorgarlik ko’rish masalalari yuzasidan seminar o’tkazildi. Hozirda 4 ta urug’lik don sexida 4 000 tonna saralangan urug’lik bo’lib, qolgan urug’likni tayyorlash ishlari joriy yil 10 sentyabrga qadar yakunlanadi.

Viloyat rahbari voha iqlimi va tuproq sharoitlariga mos urug’larni tanlash, dorilash, saralash va urug’lik donni ekishga to’liq tayyorlash ishlarini belgilangan muddatda yakunlash topshirig’ini berdi. Tadbir yakunida urug’lik sexida ko’p yillardan buyon namunali faoliyat yuritib kelayotgan bir guruh xodimlarga sovg’alar topshirildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)